



THE METHOD OF RETROSPECTION IN MODERN UZBEKISTAN SHORTWRITING (ON THE EXAMPLE OF THE SHORT STORY “THE PEOPLE WHO LEFT THE COUNCIL” BY SHOYIM BOTAYEV)

Yakshilikova Sevinch Nurillayevna

Master's student at Gulistan State University

Abstract: The article studies the form of artistic time - retrospection and its role in the composition of the work. Any example of artistic creativity, in particular prose, widely uses various methods that form an integral part of the artistic time, based on the ideological and aesthetic concept of the writer. The writer's depiction of past memories through the method of retrospection is studied on the example of Shoyim Botayev's prose.

Keywords: retrospection, prospection, plot, hero, artistic image, character, retrospection-memory, retrospection-narrative, retrospection-story, retrospection-epigraph.

ZAMONAVIY O‘ZBEK QISSACHILIGIDA RETROSPEKSIYA USULI (SHOYIM BO‘TAYEV “SHO‘RODAN QOLGAN ODAMLAR” QISSASI MISOLIDA)

Yaxshilikova Sevinch Nurillayevna

Guliston davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: Maqolada badiiy zamon shakli – retrospeksiya va uning asar kompozitsiyasidagi o‘rni tadqiq etilgan. Badiiy ijodning har qanday namunasi, xususan, nasrda yozuvchining g‘oyaviy-estetik konsepsiyasidan kelib chiqqan holda badiiy zamonning uzviy tarkibiy qismini tashkil etuvchi turli usullardan keng foydalaniladi. Yozuvchining o‘tmish xotiralarini retrospeksiya usuli vositasida tasvirlashi Shoyim Bo‘tayev nasri misolida tadqiq qilingan.

Kalit so‘zlar: retrospeksiya, prospeksiya, syujet, qahramon, badiiy obraz, personaj, retrospeksiya-xotira, retrospeksiya-rivoyat, retrospeksiya-hikoya, retrospeksiya-epigraf.

МЕТОД РЕТРОСПЕКТИВНОГО АНАЛИЗА В СОВРЕМЕННОЙ УЗБЕКСКОЙ КОРОТКОЙ ПРОЗЕ (НА ПРИМЕРЕ РАССКАЗА «ЛЮДИ, ПОКИНУВШИЕ СОВЕТ» ШОИМА БОТАЕВА)

Якшиликова Севинч Нуриллаевна



Магистрант Гулистанского государственного университета

Аннотация: В статье исследуется форма художественного времени ретроспектива и её роль в композиции произведения. Любой пример художественного творчества, в частности прозы, широко использует различные методы, составляющие неотъемлемую часть художественного времени, исходя из идеологической и эстетической концепции писателя. Изображение писателем воспоминаний о прошлом посредством метода ретроспективы изучается на примере прозы Шоима Ботаева.

Ключевые слова: интроспекция, проекция, сюжет, герой, художественный образ, персонаж, ретроспектива-память, ретроспектива-повествование, ретроспектива-история, ретроспектива-эпиграф.

Badiiy asarda tasvirlanayotgan voqealar makon va zamonda kechadi, „Zamonning ko‘rinish belgi-alomatlari makonda namoyon bo‘ladi, makon esa zamon orqali anglanadi va o‘lchanadi“, – deya e’tirof etadi M.M.Baxtin [1.B.234]. Aynan shu sababdan ham badiiy asarda zamonni makondan yoki aksincha, makonni zamondan ajratib bo‘lmaydi. Badiiy asar zamonining o‘ziga xosligi unga voqelikdagi o‘zgarishlarni, shakllanish, rivojlanish jarayonlarini berish imkonini tug‘diradi. Badiiy so‘z ustasi ijodiy niyatidan kelib chiqqan holda, zamon va makonni adabiy yangicha kashf qilish, ularni istagancha erkin tanlash, bir kunga asrlarni, asrga esa bir kunni sig‘dirishdek badiiy zamon hamda badiiy makondan ijodiy erkin foydalanish mahoratini namoyon qiladi.

Adabiyotshunos Dilmurod Quronov ta’kidlaganidek, avvalo, „...badiiy asarda tasvirlanayotgan voqealarning yuz berish vaqti bilan ularni hikoya qilish vaqtini farqlash kerak. Asardagi voqealarning yuz berish vaqti «syujet vaqti», ularning hikoya qilinish vaqti esa «kompozitsiya vaqti» deb olinsa, u holda bu ikkisining har vaqt ham bir-biriga mos kelmasligini ko‘rish mumkin. Chunki asar ustida ishlayotgan yozuvchi ijodiy niyatini amalga oshirish yo‘lida «badiiy vaqt» imkoniyatlaridan turli yo‘sinlarda foydalanishi mumkin. U zarur o‘rinda asar vaqtidan chekinib, o‘tmishda yuz bergan voqealarni tasvirlashi («retrospektiv vaqt») mumkin»[4.B.13].Retrospeksiya usuli shaklan va mazmunan murakkab hamda xilma-xil ijodiy-estetik mundarijani tashkil etadi. Badiiy syujet hodisasi barobarida, eng avvalo, shu syujet qurilishining asosiy prinsiplaridan biri sifatida retrospeksiya



o‘tgan va hozirgi zamonlarning jonli aloqasini ko‘rsatish imkonini beruvchi adabiy usuldir [9.B.176].U voqealar zamonini rejalashtirishning hamisha ajralib turadigan usuli, kompozitsiyaviy asoslash vositasi bo‘lib, qahramonning oldingi tarixini kengaytirish uchun imkoniyat yaratadi, ahvol-holatini aniqlashtiradi. Retrospeksiyaning xotira, hikoya, rivoyat, afsona, epigraf shakllari mavjud [2.B.8]

“Sho‘roda qolgan odamlar” qissasida personajlar o‘tmishida ro‘y bergan, ongiga, shuuriga singib ketgan hodisalarni xotirlaydi. Retrospeksiya-xotira personaj qalb tug‘yonlarini, ruhiy dunyosini chuqur ochishga xizmat qilish barobarida ruhiy olamdagi o‘tmishga nazar solish imkonini .“Eslash usuli ruhiyat tasvirida asar personajlarining muayyan holatlardagi o‘y-fikrlarini, xatti-harakatini o‘tmish voqealari bilan bog‘liqlikda asoslash vazifasini ham ado etadi. Ayrim hollarda bu usul personajning , ong oqimi bilan bog‘liqlikda qo‘llanadi. Bunday hollarda eslash usuli personajning o‘ta murakkab ruhiy holatidan, uning ongi va qalbida kechayotgan achchiq ruhiy iztiroblarni so‘ndirish, barcha qilmishlarida o‘zini to‘la haq ekanligini isbotlash uchun xizmat qiladi”[2.B.129].

Yozuvchi nafaqat personaj o‘tmishi, balki uzoq tarixda sodir bo‘lgan voqeliklarni ham parallel tasvirlashda retrospeksiya-xotira usulidan foydalangan.Sud zalida uch yigitning jinoiy ishi ko‘rib chiqilish vaqtida sud raisi o‘tmishga qaytar ekan ,”...beixtiyor o‘qituvchining so‘zlariga qiziqib qoldi.Talabalik yillarini esladi.O‘shanda u bir guruh hamkurslari bilan inson har qanday siyosatdan,mafkuradan balandroq,muhimroq ekanligi haqidagi qarashlarni qizg‘in tarzda ko‘tarib chiqqan,shu bois,hukumatning mavjud siyosatiga qarshi degan bahonada universitetdan haydalib ketilishiga bir bahya qolgandi...”[11.B.353]. Bundan ko‘rinadiki,sud raisi bir vaqtlar haq uchun kurashgan ,lekin vaqtlar o‘tib faqat tizim “haqiqatlari”ni tan olishga majbur bo‘lgan.U ham boshqalar kabi “tizimlashtirilgan mexanik mashina”ga aylantirilgan edi ,lekin sud zalida muallim tomonidan aytilgan so‘zlar uning ruhiyatidagi qorong‘ulikni yorituvchi uchqun vazifasini bajardi.Yoki nazoratchi o‘z ismini Melsifga o‘zgartirish voqeasiga to‘xtalib o‘tsak,”...xizmatni tugatib,qishloqqa qaytib kelganida bu qilig‘i uchun onasidan qarg‘ish eshitgan,otasi bo‘lsa ,qo‘yaver,hech narsaga tushunmaydi,gapiraveradi-da,deb o‘g‘liga taskin-tasalli bergani...”ni yodga oladi.[11.B.408]. Sho‘ro davrida Mels,Marks, Engels, Lenin,



Stalin kabi qisqartma ismlar qo'yish urf bo'lgan. Nazoratchi o'z ismini Melsga o'zgartirish bilan o'zining tuzumga qanchalik darajada sodiqligini isbotlashga urindi. Sho'ro davrining insonlar mafkurasiga ta'sirining kuchi ushbu jarayonda yaqqol namoyon bo'ladi. Yozuvchi personajlarning qanday qilib o'zligidan, milliy mafkuradan uzoqlashib borganini bosqichma-bosqich retrospeksiya-xotira orqali tasvirlashga harakat qiladi. Birgina eslashdan iborat ruhiy holatning o'zi har bir xarakter xatti-harakatidagi yangi qirralarni ochish imkonini bergan. Retrospeksiya – xotiralar – qahramonning o'tmish hayoti xotirlanishi, esga olinishi asardagi voqealar oqimini to'ldirishga, zamon-makon (xronotop)ini kengaytirishga yordam bergan"[8.B.3].

Adabiyotshunos Qurdosh Qahramonov qayd qilib o'tganidek: "Yetmishinchi yillar sho'ro davriga nazar tashlasak, asosan, davrning ijtimoiy hayoti bosh mavzu bo'lganligini kuzatamiz. Inson ma'naviyati bilan bog'liq har qanday masalalar ham eng avvalo ijtimoiy motiv asosida tasvirlanar edi... Biroq, shunga qaramasdan, keng ma'noda bu davr adabiyotining yetakchi mavzusi mavjud davr g'oyalarini kuylashdan iborat bo'lgani hech kimga sir emas. Faqat yetmishinchi yillarning oxiri, saksoninchi yillarning boshlariga kelibgina o'zbek nasrida ba'zi bir sifat o'zgarishlari ko'zga tashlana boshladi. Ayni paytda bundan global masalalar adabiyotimizni butkul chetlab o'tilgan edi, deb o'ylash ham xato bo'lar edi"[3.B.25]. Yozuvchi o'tmish hodisalarini tasvirlashda hikoya qilishdan ham unumli foydalanadi. "Sho'rodan qolgan odamlar" qissasida farzandlari tomonidan madrasa g'ishtlarini olib kelganligi uchun quvib yuborilgan Cho'yanboy Qulmonovning keying taqdiri Sunnat o'g'ri tomonidan hikoya qilib beriladi. Bayon qilinishicha, "...Cho'yanboy Qulmonov o'zi bu paytlarda jindakkina sovuqdan ham eti junjikadigan, balodan qqo'rqqandek undan qo'rqadigan bo'lib qolgan ekan. O'limning osonroq yo'lini tanlagan, kechasi choyxona to'siniga beliga bog'lab yuradigan chilvir bilan o'zini osgan..."[11.B.396]. Cho'yanboy Qulmonov ham tashqi, ham ma'naviy sovuqlikdan qochib, o'limning "oson" yo'lini tanlashi xotiralarda jonlanadi.

Kitobga kirgan asarlarning hammasi ayni shu kunlarimiz, shu kundagi odamlarning – zamonadoshlarning qismati, dardi dunyosi, ularni qiynayotgan hayot, turmush muammolari ustida bahs etadi. Bir tizimdan ikkinchi bir tizimga o'tish davri



zamondoshlar tabiatida, qarashlarida, qismatida, ruhiyatida yuz berayotgan evrilish, o'zgarishlar ,jamiki ziddiyatlari, musbat va manfiy tomonlari, dolg'alari va og'riqlari bilan ko'z oldingizda baralla gavalanadi[4.B.4]. Shuningdek,o'sha davrning dolzarb hodisalari xalq og'zaki ijodi orqali yetib kelgan afsonalar, rivoyatlar bilan singishib ajib bir yaxlitlik kasb etadi.“Sho'rodan qolgan odamlar” qissasida so'g'dlar qo'rg'oni haqida kichik rivoyat keltiriladi.Qamoqxonaning tosh yotqizilgan chinniday toza hovlisi kaftdagidek aniq ko'rinib turadigan tepalikda nazari o'tkir,so'zlari keskir xoqon qo'rg'oni bo'lib,o'zining qattiqqo'lligi bilan nom qozongan ekan .”...munajjimlar samoga boqib o'z Pushti panohlarining yulduzi abadiy balqib,unga tole keltirishini bashorat qilgan ekanlar...”. O'z ustlariga yulduzlarning emas,tuproqning to'kilib borayotganligini payqamay qolishadi .Inqiroz natijasida ushbu tepalik hosil bo'ladi.Bu rivoyatning keltirilishidan yozuvchining badiiy niyati bor,albatta.Bu kichik so'g'd qo'rg'oni fojeasi yaqinda sodir bo'ladigan fojeaga ishoradir.

Sh.Bo'tayevning “Qora tuman “hikoyasi syujetida ham retrospeksiya-rivoyat katta fojeaga ishora sifatida keltiriladi.Voqealar rivojida darbadarlikdan ham achchiqroq xor-u zorlikning ta'mini tatigan, shundayam oldinda mayoqday miltillab turguvchi shu'laga — umidga ishongan Xolbo'ta Iskandar Zulqarnayn haqidagi yoshligida eshitgan rivoyatni eslaydi.Aytishlaricha,Iskandar dafn qilinishidan oldin onasiga sog'insa,qabr boshiga borib uch marta chaqirishini aytadi .Farzandining firoqida yongan ona o'g'lining ismini aytar ekan,lekin sado chiqmabdi .Shunda ona chiqmagan jondan umid deya o'g'lini laqabi bilan chaqirgan ekan:“Eshitdim ona, debdi Iskandar Zulqarnayn, yer ostida men kabi Iskandarlarning minglabi yotgan ekan, avvalgi: uch marta chaqirganingda qay birimiz ekan, deb hayron bo'luvdik, laqabimni qo'shib chaqirganingda sening kelganingni bilib, chiqdim, debdi...”[10..B.2]. Bundan anglashiladiki,Xolbo'ta ham xuddi Iskandardek o'lim topishi haqiqat.Lekin farzand dog'i har qanday onani „o'ldiradi“.Said Ahmadning „Ufq“ trilogiyasida keltirilganidek, ona „qo'lidagi choyni ham bolasiga ilinardi“[7.B.688] Retrospeksiya-rivoyat ifodaning yorqin, tasvirning jonli bo'lishiga xizmat qilib, estetik ta'sir kuchini oshirgan.

Xulosa qilib aytganda,Shoyim Bo'tayev zamon modelida o'tmish hozir va kelajakdan ustun turadi. Yozuvchi personajlar o'tmishini ularning o'y-xayollari va



xotiralari asosida tasvirlaydi.”Sho‘rodan qolgan odamlar” qissasidagi nazoratchi va ukasi o‘rtasidagi nizolar, ukaning qaynotaning mulkiga ega chiqishi, nazoratchining harbiy xizmat davrlari, Toshmurodning bolalik davrlari, qamoqxonaning qurilish voqealari retrospeksiyaning xotira, hikoya, rivoyat shakllari orqali jonlantiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Baxtin M.M. Voprosi literaturi i estetiki. – M.: Xudojestvennaya literatura, 1975. – S. 234-235.
2. Isayeva Sh. O‘zbek tarixiy romanlarida xarakter ruhiyatini tasvirlash usullari: Filol. fan. nomz. ... diss. – Toshkent, 2001. – 129 b.
3. Qahramonov Q. Zamondosh obrazi talqini. Qarang: Globallashuv: badiiy talqin, zamon va qahramon. – Toshkent: Fan, 2018. – B. 25.
4. Quronov D. Nazariy qaydlar. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – B.
5. Normatov U. Yangi asr odamlari // «O‘zbekiston adabiyoti va san’ati» gazetasi, 2009. 22-son. – 4-bet.
6. Nematullaevna, T. D. (2019). The Process of Literary Creativity and Aesthetic Interpretation. ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 8(3), 49-53.
7. Said Ahmad. Ufq. Trilogiya. – Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1976. – 688 b.
8. To‘rayeva B.B. Zamonaviy romanlarda retrospeksiya usulining qiyosiy-tipologik tadqiqi. [Elektron resurs]. URL: <https://www.ajhuman.uz/article/275064997123/>
9. Shodiyev N. Gorizonti epasa. Xudojestvenno-esteticheskoye bogatstvo epicheskoy prozi literatur Sredney Azii i Kazaxstana. – Tashkent: Izdatelstvo literaturi i iskusstva, 1986. – 176 s.
10. Shoyim Bo‘taye. Qora tuman (hikoya). [Elektron resurs]. URL: <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/shoyim-bo-tayev1959/shoyim-bo-tayev-qora-tuman-hikoya>
11. Bo‘taye Sh. “Sho‘rodan qolgan odamlar”-T.: “Ijod-press”,2019.-B.430.